XALQ DEPUTATLARI QAMASHI TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 27 - iyun VI-51-67-4-58-K/22 Qamashi tuman hokimligi

Qamashi tumanidagi aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo‘lgan nomsiz ko‘chalarga va yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘inlariga nom berish to‘g‘risida

Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo‘lgan nomsiz ko‘chalarga va yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘inlariga nom berish to‘g‘risidagi Qamashi tuman hokimligiga kiritgan iltimosnoma xati, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2022-yil 11-apreldagi 3-son va 14-apreldagi 4-sonli yig‘ilish bayonlari, Qamashi tuman hokimining aholi punktlarining tarkibiy qismlariga nom berish to‘g‘risida viloyat komissiyasiga 2022-yil 15-apreldagi takliflari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 26-maydagi 08-04298-son xulosasi va O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni 10-moddasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari Qamashi tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 26-maydagi 08-04298-son xulosasiga asosan Qamashi tuman hokimining aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo‘lgan yangi tashkil etilgan mahallalarga va nomsiz ko‘chalarga nom berish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. Qamashi tumanida nom berilayotgan geografik obyektlarning ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qamashi tumani Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Bekmurzayev) bir hafta muddatda tuman hududidagi nomlari o‘zgargan geografik obyektlarning nomlarini zamonaviy ko‘rinishda peshlavhalarga yozib o‘rnatish vazifasi yuklansin.

4. Tumandagi tegishli mahalla fuqarolari yig‘inlari raislariga aholi punktlarining tarkibiy qismlari bo‘lgan nomsiz ko‘chalarga va yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘inlariga nom berish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullanganligi munosabati bilan aholi o‘rtasida keng tashviqot-targ‘ibot ishlarini o‘tkazish tavsiya etilsin.

5. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Meyliyev) nom berilgan hududda yashovchi aholining fuqarolik pasportlari berilayotganda mazkur holatga alohida e’tibor qaratsin.

6. Ushbu qaror “Qamashi” gazetasida e’lon qilinsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari B.Haydarov zimmasiga yuklansin.

8. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi **B.Tog‘ayev**

Xalq deputatlari Qamashi tuman
Kengashining
2022 yil 27 iyundagi
VI-51-67-4-58-K/22-son qaroriga
1-ilova

Qamashi tumanida yangi tashkil etilgan mahalla va nomsiz ko‘chalarga taklif berilgan nomlari

RO‘YXATI

№	Geografik obyekt turi	Joylashgan o‘rni	№	Obyekt nomi	№	Taklif qilingan nom	Ekspertiza xulosasi
1.	Mahalla	Qamashi tumani	**1.**	Nomsiz	**1.**	Yangi avlod	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2.	Mahalla	Qamashi tumani	**1.**	Nomsiz	**2.**	Shodlik	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3.	Mahalla	Qamashi tumani	**1.**	Nomsiz	**3.**	Uchtepa	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4.	Ko‘cha	Olmazor MFY	**1.**	Nomsiz ko‘cha	**4.**	Ali Qushchi	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
		Olmazor MFY	**2.**	Nomsiz ko‘cha	**5.**	Shiroq	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
		Olmazor MFY	**3.**	Nomsiz ko‘cha	**6.**	Oydin yo‘l	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5.	Ko‘cha	Qoratepa MFY	**1.**	Nomsiz ko‘cha	**7.**	Oromijon	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
		Qoratepa MFY	**2.**	Nomsiz ko‘cha	**8.**	Yaxshilik	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
		Qoratepa MFY	**3.**	Nomsiz ko‘cha	**9.**	Baxttepa	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
		Qoratepa MFY	**4.**	Nomsiz ko‘cha	**10.**	Sarbon	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq